

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
Navoiy davlat pedagogika instituti

Qo‘lyozma huquqida

Rajabov Faxriddin Toshpo‘latovich

**Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida uy-ro‘zg‘or
buyumlarining leksik-semantik tahlili**

Ixtisoslik: 5A 141101-“O‘zbek tili”

O‘zbek tili magistri darajasini olish uchun tayyorlangan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

f.f.n. B.Zaripov

Navoiy-2012

MUNDARIJA

KIRISH.....3-23-betlar

**I BOB. ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA
QO‘LLANGAN XONA VA OSHXONA JIHOZLARI BILAN
BOG‘LIQ UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARINING LEKSIK-SEMANTIK
TAHLILI.....24-26-betlar**

1.1. Xona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari.....27-35-betlar

1.2. Oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari.....36-41-betlar

**II BOB. ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA
QO‘LLANGAN TIKISH-BICHISH VA DURADGORLIK BILAN
BOG‘LIQ UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARINING LEKSIK-SEMANTIK
TAHLILI.....42-43-betlar**

2.1. Tikish -bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari.....44-50-betlar

2.2. Duradgorlik bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari.....51-54-betlar

UMUMIY XULOSALAR.....55-58-betlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....59-61-betlar

Ilova.....62-64-betlar

Annotatsiya

O'zbek tili uzoq va boy tarixga ega bo'lgan tildir. Chunonchi, Alisher Navoiy tilini o'rganish masalasini olaylik. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so'z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamon dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Navoiy asarlari tilining badiiy xususiyatlari, fonetik tizimi, lug'aviy boyligini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar yozildi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Xususan, H.Sulaymonov, A.Hayitmetov, O.Sharofiddinov, N.Mallayev, E. Ishoqov, B.Bafojev, I.Haqqulov va B.Zaripovlarning qator ilmiy tadqiqot hammaga ma'lum. S.Ibrohimov va P.Shamsiyevlar Navoiy asarlari tilining bir jildli, E.Fozilov rahbarligida bir guruh olimlar to'rt jildli izohli lug'atlarini tuzdilar.

Dissertatsiyada Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tilidagi uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida birinchi marta sistema sifatida, uning mavzuiy guruhlari shu nuqtai nazardan tarkibiy qismlarga ajratildi va tahlil qilindi.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Alisher Navoiy jahon adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. U yuqori kamolot bosqichidagi buyuk aql egasi – chin ma'nosi bilan gerial shoir, mutafakkir va ulug' gumanist edi. Navoiydan qolgan buyuk adabiy meros bir necha asrlar davomida O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining adabiyoti va fikriy taraqqiyotiga zo'r ta'sir ko'rsatib keldi.

O'zbek adabiy tili so'nggi besh asr ichida Navoiy merosi asosida taraqqiy etdi, uning ilg'or an'alarini davom ettirdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz¹"

Biz, yosh tadqiqotchilarning vazifasi Yurtboshimizning ana shunday fikrlaridan kelib chiqib, Alisher Navoiy asarlari tilini hozirgi mustaqillik davri talablaridan kelib chiqqan holda yanada chuqurroq o'rganish va keng targ'ib etishdan iboratdir.

Navoiy o'zining o'lmas badiiy merosi bilan, ilmiy asarlari bilan nafaqat Xitoydan Xurosongacha, balki Dashti Qipchoq, Volgabo'yi, Kavkaz ortidan to Kichik Osiyoga, Yevropagacha bo'lgan hududlarni "cherik chekmay o'z taxti farmoniga" oldi, turkiy (eski o'zbek) tilining o'zga rivojlangan, xususan, arab va fors-tojik tillaridan hech bir sathi bo'yicha kam emasligini, aksincha, ba'zi jihatlari bilan ustunligini,

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B.47-48.

turkiyda ajoyib she'riy dostonlar bitish, "«Xamsa» yaratish mumkinligini amalga isbotlab berdi.

Turkiy (eski o'zbek) tilining boyligi va jozibasi unga xos keng imkoniyatlarning Navoiy ijodi misolida yaqqol ro'yobga chiqishi lingvistlar adib merosi til xususiyatlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etishga undab kelmoqda Alisher

Mazkur yo'nalishda turkologiya hamda o'zbek tilshunosligida ko'pdan-ko'p izlanishlar olib borildi, ilmiy asarlar, lug'atlar, risolalar, maqolalar chop etildi, ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Navoiy ijodi til xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'pligi ularni alohida – alohida zikr etish imkonini bermaydi. Ammo navoiyshunoslikka ulkan hissa qo'shgan A.K.Borovkov, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, O.Usmonov, B.Bafojev, K.Eraslan, Ya.Ekmani, E.Umarov, B.Hasanov, M.Raxmatullayeva, A.Karimov, B.O'rinboyev, I.Nosirov, Z.Hamidov, singari tilshunoslarning mehnatini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining ma'naviyat, madaniyat tarixiga doir so'zlagan deyarli barcha, nutq va ma'ruzalarida Alisher Navoiyni yuksak ehtirom ila tilga oladi, uning asarlari zamonamizning komil insonlarni tarbiyalashda muhim qurol, vosita bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Prezidentimiz I.A.Karimov so'lim shahrimiz Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Alisher Navoiy xalqimizning ong va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'nu-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir... Ona tilimizga muhabbat, uni ulug'lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu tafakkurimizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan".

Mavzuning dolzarbligi. Til insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan, madaniy ilmiy, tarixiy boyliklarini saralab, jamlab, avloddan-avlodga yetkazib beruvchi buyuk vositadir. Mustaqillik sharofati tufayli hayotimizda juda katta o'zgarishlar ro'y bermoqdAlisher

Tilimizga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan Respublikamizdagi barcha millat vakillarining o'zbek tilini yaxshiroq bilishi hayotiy zaruratga aylandi.

O'zbek tili uzoq va boy tarixga ega bo'lgan tildir. Chunonchi, Alisher Navoiy tilini o'rganish masalasini olaylik. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so'z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamon dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqdAlisher

Alisher Navoiydan bizga buyuk bir adabiy – ilmiy meros qolgan. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ'ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo'yilmoqda ekan, navoiyshunoslarga muayyan qulaylik yaratish maqsadida mazkur bo'shliqni bir qadar to'ldirishga urinib, Navoiy 20 jildlik asarlari nashridagi matnlar asosida yodga olingan asarlar jamlandi va foydalanish oson bo'lish uchun alifbo tartibida berish joyiz ko'rildi. Bu biz yosh tadqiqotchilar uchun bir talay qulayliklar tug'dirdi.

Ma'lumki, shoir asarlarining tilini o'rganish uning hayotligidayoq boshlangan edi. XV-XIX asrlar davomida Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Turkiyada Navoiy asarlarida qo'llangan so'zlar va grammatik shakllarni izohlab beruvchi o'zbekcha (chig'atoycha) – forsha, o'zbekcha (chig'atoycha)- turkcha lug'atlar maydonga kelgan edi. Bunday lug'atlarga Toli Hiroviyning "Badoe' ul -

lug‘at” ini, “Abushqa”, “Lug‘ati turkiy”, “Kelurnoma”, “Sangloh”, “Moboni ul - lug‘at” kabi asarlarini keltirish mumkin.

Navoiy o‘zi ijod qilgan tilni chig‘atoy tili, chig‘atoycha yoki turkiy, turkcha deb ataydi.

Hazrat Alisher Navoiy ijodining tarixiy ahamiyati, ayniqsa, mustaqillik yillarida, xalqimiz istiqloлга erishgandan so‘ng yanada ortdi. Chunki Navoiyga bo‘lgan xalqimizning buyuk ehtiromi Prezidentimizning 1991-yilni “Navoiy yili” deb e‘lon qilishida o‘z ifodasini topdi. Navoiy va uning ijodiga nisbatan yangicha qarash va yondashuvlarning qutlug‘ qadami mustaqilligimizning ilk kunlarida boshlanganligi xayrli ishning boshida turganligimizdan darak beradi.

Navoiy asarlari tilining badiiy xususiyatlari, fonetik tizimi, lug‘aviy boyligini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar yozildi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Xususan, H. Sulaymonov, A. Hayitmetov, O. Sharofiddinov, N. Mallayev, E. Ishoqov, B. Bafojev, I. Haqqulov va B. Zaripovlarning qator ilmiy tadqiqot hammaga ma‘lum. S. Ibrohimov va P. Shamsiyevlar Navoiy asarlari tilining bir jildli, E. Fozilov rahbarligida bir guruh olimlar to‘rt jildli izohli lug‘atlarini tuzdilar.

Navoiy ijodi biz uchun betimsol maktab. Buyuk shoir o‘z asarlari bilan mangu barhayot ekan, biz uni o‘rganishda va yangi – yangi qirralarini kashf etishda davom etmog‘imiz lozim. O‘z buyuk farzandining xotirasini muqaddas saqlash, uning adabiy merosini chuqur e‘tiqod qo‘yish, sidqidildan o‘rganish xalqimizning sharaflı ishi va muqaddas burchidir. Alisher Navoiy bizning shamsul millatimiz, ya‘ni millatimizning quyoshidir.

O‘zbek tilshunosligida, ko‘rib o‘tganimizdek, Navoiy ijodi bo‘yicha qator tadqiqotlar qilingan va yana bu an‘ana davom etib kelmoqda. Alisher Ammo uning buyuk “«Xamsa» asaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlari yuzasidan jiddiy izlanishlar

olib borilmagan. Bu esa o'zbek tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib, mazkur magistrlik dissertatsiyasining o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning obyekti va manbalari: Tadqiqotni yaratishda asosiy manba sifatida “«Xamsa» asari P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning “Navoiy asarlari lug‘ati”(T., 1972-yil), “Devonu lug‘otit turk” I, II, III nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov (T., 1960-1963) kabilardan foydalanildi. Ishda “Xamsa” asaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tilidagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- Alisher Navoiy “Xamsa” asarida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ifodalovchi so‘zlarni topish;

- Alisher Navoiy “Xamsa” asarida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ifodalovchi so‘zlarning semantikasini yoritish.

- doston tilidagi xona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarini aniqlash;

- doston tilidagi oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarini aniqlash va tahlil qilish;

- asardagi tikish-bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlil qilish;

- asardagi duradgorlik bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish;

Ushbu dissertatsiya diaxron tavsifiy usulda bajarilganligi bois unda ushbu tahlil usuli yetakchilik qiladi. Bunda uzluksizlik, uzviylik va

haqqoniylik oldingi o'ringda chiqadi. Shu jihatdan qadimgi turkiy til leksikasi Navoiy asarlari tilida qanday voqelangan bo'lsa, aynan tasvirlash va tahlil qilish yo'lidan borildi. Bir necha asrlardan buyon iste'molda qolgan leksikaning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishda, tarixiy, qiyosiy, tavsiflash, tasniflash singari usullardan foydalanildi. Kerakli o'rinlarda statistik tadqiqot metodiga murojaat qilindi.

Ishning ilmiy yangiligi: Ishda Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tilidagi uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida birinchi marta sistema sifatida, uning mavzuiy guruhlari shu nuqtai nazardan tarkibiy qismlarga ajratildi va tahlil qilindi. Shuningdek, dissertatsiyada quyidagi ilmiy natijalar qo'lga kiritildi:

- "Xamsa" asari tilida qo'llanilgan uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi so'zlar aniqlandi;
- asar tilida qo'llanilgan uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi so'zlar alohida mavzuiy guruhlarga ajratildi;

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlariga hamda dialektal falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullariga tayanildi.

Ishda tavsifiy, qiyosiy, tasnifiy, kontekstual, komponent tahlil kabi metodlardan unumli foydalanildi

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Unda Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tilida qo'llanilgan uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi so'zlar leksik – semantik xususiyatlari o'ziga xos sistema sifatida talqin etildi. Shuningdek, ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati yana quyidagilar bilan belgilanadi:

- Alisher Navoiyning Navoiyning “Xamsa” asari tilida qo‘llanilgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi so‘zlar leksik – semantik xususiyatlari ilk marta o‘zbek tilshunosligining so‘ngi yutuqlari asosida o‘rganildi;

- Navoiyning “Xamsa” asari tilida qo‘llanilgan uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi so‘zlarning semantik- uslubiy imkoniyatlari aniq materiallar asosida tadqiq etishning metodikasi ishlab chiqildi;

- ishda olingan ilmiy natijalardan o‘zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, uslubiyati, etimologiyasi, terminologiyasi kabi sohalarga doir o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matni tayyorlashda foydalanish mumkin;

- tadqiqot natijalari qadimgi turkiy til, eski o‘zbek tili kursini o‘rganishda qo‘shimcha material bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan chop etilgan “Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining tematikasiga doir” (Professor-o‘qituvchilar va talabalarining XXVI ilmiy-amaliy konfrerensiyasi materiallari IV qism) Navoiy-2011, “Alisher Navoiyning “Xamsa”sida uy-ro‘zg‘or buyumini ifodalovchi so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari” (Yosh tilshunoslar, Alisher Navoiy tavalludining 570-yilligiga bag‘ishlanadi) Navoiy-2011, “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo‘llangan ba’zi uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari” (Yosh tilshunoslar, Ozbek tili mutaxassisligi magistrantlari va iqtidorli talabalarining ilmiy maqolalari to‘plami) Navoiy-2012, “Farhod va Shirin” dostonida ba’zi uy-ro‘zg‘or buyumlari”, “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo‘llangan tikish-bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlari” (Yosh tilshunoslar, Ozbek tili mutaxassisligi magistrantlari va iqtidorli talabalarining ilmiy maqolalari to‘plami) Navoiy-2012, “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo‘llangan ba’zi uy-ro‘zg‘or buyumlari

nomlari” (Konstitutsiya-jamiatning huquqiy tayanchi mavzuidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari) Navoiy-2011, “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida xona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlari” ilmiy maqolalarida o‘z ifodasini topgan.

Ishning hajmi va tuzilishi: Magistrlik dissertatsiyasining umumiy tavsifi, kirish, ikki bob, umumiy xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

KIRISH

Muayyan tilning shakllanishi, rivojlanishi va sayqal topishida, shubhasiz, buyuk shaxslar-allomalar, shoirlar, yozuvchilar, mutafakkirlar, davlat arboblari, olimlarning salmoqli oʻrni bor. Bir necha ming yillik oʻz taraqqiyot yoʻliga ega oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida va sayqal topishida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshgʻariy, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy, Nasriddin Ravgʻuziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Oybek kabi koʻplab adiblarning ulkan xizmati mavjud.

Oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va bugungi holatga chiqishida, shubhasiz, uning tom maʼnodagi asoschisi Alisher Navoiyning roli beqiyos.

Turkiy (eski oʻzbek) tilning boyligi va jozibasi, unga xos keng imkoniyatlarining Navoiy ijodi misolida yaqqol roʻyobga chiqishi tilshunos olimlarni adib merosi til xususiyatlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, buning natijasida eski oʻzbek adabiy tilining fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va sintaktik sathlari haqida nazariy toʻxtamlarga kelishiga turtki boʻldi.

Navoiy asarlari tili leksikasi navoiyshunoslikda ancha koʻp oʻrganilgan sath hisoblanadi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, Navoiy asarlari tilida isteʼmolda boʻlgan soʻz boyligining katta qismini asl turkiy qatlam tashkil etadi. Bu qatlam tarkibida 1400 atrofida qadimgi turkiy til (VII-X) va eski turkiy til (XI-XIV) ga xos leksik birliklar oʻz ifodasini topgan. Xususan, tadqiqotimiz obyektiboʻlgan “Hayrat ul-abror” dostonida 600 ga yaqin qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga xos leksik birliklar qoʻllanilgan.

Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlar tilida 26 mingdan ziyod leksik birliklarning isteʼmolda boʻlganligini bilamiz.¹ Adib soʻz xazinasidagi sezilarli ulushni, yaʼni asl turkiy qatlamni asosini qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga doir leksemalar tashkil etishi tabiiy hol. Zero

¹ Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. T., “Fan”, 1983, 19-b.

istalgan adabiy tilning nufuzi, qimmatini shu tilga xos birliklarning miqdori, o'zaro turli munosabatga kira olish imkoniyati bilan baholanadi.

Adabiy me'yor tilning tovush sistemasini, grammatik qurilishi hamda uning lug'at sostavidagi eng tipik hayotiy va zaruriy elementlarni tanlab olish asosida tashkil topadi. U tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlashgan formasidir.² Biz Alisher Navoiyni ona tilimizning asoschisi deb aytishimiz bejizga emas.

Buyuk so'z san'atkori hazrat Navoiyning adabiy til me'yoriga bo'lgan munosabatini uning ijodiyotidagi so'zlarning ishlatilishini kuzatish jarayoridan bilib olishimiz mumkin. Adabiy misollarga tayanish, ularni misol tariqasida dalil qilib keltirish, u yoki bu so'z va iboralarning to'g'ri qo'llay olganligining asosiy dalilidir.

Buyuk yozuvchilarimiz ham asosan, tilni xalqdan o'rganish bilan birga, o'zlari ham tilni ishlash, sayqallashtirish, mukammallashtirishdek mas'uliyatli vazifaga ulkan hissa qo'shganlar. Buyuk yozuvchilar o'z mahoratlari va nufuzlari bilan, bir jihatdan me'yor yaratish va tuzishga ko'maklashsalar, bir jihatdan me'yorning kengayib, takomillashib uning uzluksiz ravishda harakatda bo'lib turishiga ta'sir ko'rsatadilar. Demak, biz ularning asarlarida xalq tilining boyligi va jozibasini ham buyuk so'z san'atkorining tilidagi individual o'ziga xos belgilarini ham va nihoyat, ularning me'yoriga ko'rsatgan ta'sirini ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mashhur yozuvchilarning me'yorga bo'lgan ta'sirlari adabiy tilning juda tez taraqqiy qilayotgan davrida, sezilarli bo'ladi. Masalan, XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan ulug' shoirlar: Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, xususan, Navoiyning bu boradagi xizmatlari ulkan ahamiyatga molikdir.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining so'ngi asarlaridan biri "Muhokamatul lug'atayn"da fors tiliga yuqori baho berish bilan birga o'zbek tilining so'z boyligini (alfos kasrati) alohida ta'kidlaydi: Navoiy

²Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov N. O'zbek tili stilistikasi. T., "O'qituvchi", 1983, 13-b.

o'zbek tilida so'z va iboralarning ishlatilish doirasi juda kengligini (iborat vus'asi)³, fikrning ajoyibligini – g'alatiligini (maoniy g'arobati)⁴, chechanlik va noziklikni (fasohat va diqqati)⁵, yetuklikni (balog'at)⁶ hamda ifodaning ravon va silliqiligini (ado salosati)⁷ ko'radi va "bas bu haysiyatlardan andoq ma'lum bo'lurkim bu tilda g'arib alfos va ado ko'pdur" degan xulosaga keladi. Navoiy o'ziga bo'lgan davr adabiy tilida "...hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmog'on jihatdin yashurun qolib" kelgan bu kabi xislatlarga qayta jon bag'ishlaydi, ularning adabiy til me'yoriga aylanishi uchun o'zining butun ijodi bilan ko'maklashadi. Bular Navoiyning tilga olib kirgan barcha yangiliklari adabiy til me'yorlariga aylandi, degan xulosaga kelish noo'rindir. Navoiy yaratgan yangiliklar uning o'ziga xos uslubining uslubining yuksakligi, boyligi sifatida baholanaveradi. Navoiy asos solgan adabiy til darajasiga ko'tarilgan o'zbek tili ulkan xalqning adabiy tili sifatida rivojlanib, mukammallashib, bugungi holatiga kelgan. Alisher Navoiy boshlab bergan buyuk an'ana yillar mobaynida kuchayib, o'z ahamiyatini to'laligicha saqlab qolgan.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ilmiy asarlarini arab tilida va badiiy asarlarni fors-tojik tilida yozish an'anaga aylangan bir davrda o'zbek tilining ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlariga ega ekanini ko'rsatdi.⁸

XV-XVI asr eski o'zbek adabiy tili ijtimoiy hayotning keng sohalari uchun xizmat qilgan, davlat va jamiyat muassasalari, tashkilotlarida, ayniqsa, badiiy adabiyotda uning mavqei ancha yuqori bo'lgan.

Navoiy asarlari tili leksikasi navoiyshunoslikda ancha o'rganilgan sath hisoblanadi. Shoir asarlari matnida qo'llangan leksemalar statistik nuqtai nazardan aniqlangan⁹, ularning leksik – semantik, stilistik,

³Alisher Navoiy. Asarlar. 14-rom, Toshkent, 1968, 113-b.

⁴O'sha asar, 132bet.

⁵O'sha asar, 31 bet

⁶O'sha asar, 118 bet

⁷O'sha asar 117 bet.

⁸O'rinqboyev B. Turkiy xalqlar adabiy tili tarixi. Samarqand. 2006, 66-bet.

⁹Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. T., "Fan", 1983, 157-b.

lingvopoetik xususiyatlari tatqiq qilingan,¹⁰ sinonimlar qatori¹¹ ba'zi terminlar tizimi¹² ustida izlanishlar amalga oshirilgan.

¹⁰Karimov A. A.Navoiyning "Farxod va Shirin" dostoni tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1973, 22-bet.

¹¹Рахматуллаева М.К. вопросу изучения синонимов в лирике Алишер Навои (на материале Наводуир аннихоя). Афтореф дисс.канд. филол. наук. Т., 1965, 21 с.

¹²Дадабоев Х., Носиров И., Хусанов Н. Проблеми лексика стороузбекского языка. Т., Фан. 1990.

1.1. Alisher Navoiyning o‘zbek adabiy tili, uning leksikasi va me’yorlariga munosabati

Buyuk Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida so‘z qadri, uning tashqi va ichki ma’nolari, xususiylik va umumiylik borasidagi xususiyatlarini bunday izohlagan edi: “...so‘z durredukim, aning daryosi ko‘nguldir va ko‘ngul mahzang dukim, joliyi maoniyi juzv va kulldur.

...Ko‘nguldin dog‘i so‘z durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bilan guzorish va oroyish ko‘rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatiga boqa intishor topar”.¹³ “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”¹⁴ shoir asarlarining barcha leksik boyliklari qamrab olingan.

Navoiy ijodining poyoni yo‘q. Alisher Navoiy g‘azallarini o‘rganishda ulardagi faqat tashqi – zohiriy ma’nolarni ilg‘ash bilan cheklanib qolmay, uning yashirin – botiniy sifatlarini ham idrok etish lozim bo‘ladi. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho‘qqisidir. Chunki hech kim unga qadar va undan keyin ham tilda “ko‘p” va “xo‘p” yozmagan.

Alisher Navoiy asarlari tilida, jumladan, “Garoyibus-sig‘ar” da ham qo‘llangan qadimgi turkiy leksikaning salmoqli qismi nafaqat eski o‘zbek adabiy tili, shuningdek, arab tili so‘z xazinasida hamon faol ishlatilayotgan leksik birliklar hisoblanadi.

Navoiy nasri va nazmida qo‘llangan arabcha so‘zlarning ba’zilari ma’lum darajada arxaiklasha boshlagan. Ularga talluqli ma’nolarni ifodalash asl arabcha ma’nodoshlari yoxud xorijiy tillardan kirgan o‘zlashmalar zimmasiga tushgan.

Qurilish jihatdan ham qadimgi turkiy til, ham Navoiy asarlarida muvofiq tushuvchi leksik birliklar qiyosi ularning eski o‘zbek tili leksik fondida miqdoran kattaligini ko‘rsatadi.

¹³Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 16-jild. T., “Fan”.

¹⁴Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. T., “Fan”, 1982-1985.

Qadimgi turkiy til leksikasini fonetik – fonologik nuqtai nazardan qiyoslash ular strukturasidagi mutanosibliklar qatori soʻz va morfimilyatsiya, dissimilyatsiya, akkomodatsiya, proteza, epenteza, epiteza, sinkopa, apakepa, reduksiya, eleziya, dinreza, mitateza, geminatsiya kabi fonetik hojisalarning yuz berganini dalillaydi.

Qadimgi turkiy til va eski turkiy tilda biror-bir maʼno ifodalash uchun baʼzan bir necha leksik-fonetik variantlar qoʻllanilgan. Bu hodisa, maʼlumki, adabiy til meʼyorlari tarkib topishi jarayonida asosiy genetik-lisoniy elementlarning oʻzaro munosabati asosida voqelanadi. Eski oʻzbek adabiy tilida, jumladan, Navoiy asarlarida qadimgi turkiy leksik variantlarning aksariyat faqat bittasi ishlatilgan.

Ushbu lisoniy hodisalarning aksi, yaʼni qadimgi turkiy tildagi leksik birlikning adib asarlarida leksik variantlarga ega boʻlgan tarzda ishlatilishi muayyan oʻrinlarda namoyon boʻlgan.

Leksik birliklarning leksik-semantik harakatlar ulardagi tarixiy-ijtimoiy oʻzgarishlarni koʻrsatadi. Shu bois lisoniy yangiliklarni nafaqat soʻz yasash analogiyalari, shuningdek, maʼnoviy xususiyatlar negizida tasniflash ham muhimdir.

Leksikadagi izchillik, uzviylikni oʻrganish soʻz hayotini zamonda diaxronik nuqtai nazardan kuzatishni taqazo etadi.

Har bir davrning alohida muhim soʻzlari mavjud boʻladi. Ularning paydo boʻlishi aniq vaqtga oid sezilarli hodisalar bilan belgilanadi. Bunday soʻz birliklari tarixi jamiyat tarixi bilan bevosita munosabatdadir. Ular hayotga nazar tashlash, kundalik turmush ifodasini koʻrish imkonini beradi. Leksika (soʻz)da xalq, jamiyat oʻtmishi, oʻtmishning bugungi kunga munosabati, taraqqiyot jarayoni, madaniyatning shakllanish, rivojlanish bosqichlari oʻz ifodasini topadi.

Alisher Navoiy eski oʻzbek (chigʻatoy, turk) adabiy tili soʻz xazinasini nafaqat yangi yasamalar yoxud oʻzga noqardosh tillardan oʻzlashgan, balki qadimgi turkiy tildan meros tarzda yetib kelgan asl turkiy

soʻzlarni oʻz asarlarida faol qoʻllash, ularga yangi-yangi maʼnoviy vazifalar yuklatishga muyassar boʻlgan.

1.2. Alisher Navoiyning o‘zbek imlosiga munosabati

Alisher Navoiy davrida o‘zbek yozuvi arab grafikasiga asoslangan edi. Unda arab tilidan olingan so‘z va iboralarning asl talaffuzini saqlash maqsadida harflari bor edi. Navoiy **b** va **p** uchun birgina (b) harfi, harflari uchun birgina shakli ishlatilgan.¹⁵

Struktur jihatdan ham qadimgi turkiy til ham, eski o‘zbek tilida mutanosib keluvchi leksik birliklarni tub va sodda yasama so‘z hamda mavzui nuqtai nazardan tasniflash tekshirilayotgan so‘z turlari tabiati borasida muayyan to‘xtamga kelish imkoniyatini berish lozim. Sh.Raxmatullayev ta’kidlaganidek, “...bu leksemalarning ko‘p qismi qadimgi turkiy tilda, ozak qismigina esa o‘zbek tilida yasalgan. Bunday leksemalar tarkibidagi unli tovush ham, undosh tovug ham hozirgi adabiy o‘zbek tiliga jiddiy o‘zgarishsiz yetib kelgan”.¹⁶

¹⁵P.Shamsiyev. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati.

¹⁶Sha.Rahmatullayev.O‘zbek tili lug‘atining turkey qatlami. T., Universitet. 2001. –b-86.

1.3. Alisher Navoiyning adabiy til va shevalariga munosabati

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi, adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabatlarning bir – biriga ta'sir qilish darajasiga bog'liq.¹⁷

Eski o'zbek adabiy tilining tom ma'nodagi adabiy tilga aylanishida, uning o'rta asrlar Sharq xalqlari dunyosida yuqori mavqeiga ega bo'lgan arab va fors-tojik tillari darajasiga ko'tarilishida, unda ajoyib g'azallar bitishi, buyuk “«Xamsa» yaratish, ilmiy asarlar yaratish, falsafiy mushohadalar yuritish mumkinligini ochiq-oydin ko'rsatishda Alisher Navoiyning beqiyos shijoati, fidokorona mehnati, tingsiz dahosi, millatparvarligi, xalqsevarligi bilan birga u kishiga Alloh tomonidan berilgan noyob iste'dod yotibdi.

Mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zining mazmunli umrini turk (o'zbek) tilining rivojlanishiga, kamol topishiga bag'ishladi. Uning bebaho nazmiy va nasriy asarlarini, Zahiriddin Muhammad Bobur ta'biricha, “qalam birla rost” bo'lgan Andijon eli lafzida bunyod etgan shoir ona (turkiy chig'atoy tili lafzi) tilini bebaho xazina, chamanzor hisoblagan, uni begonalarning past nazar qarashidan saqlashni, uni har qachon gullab-yashnashi yo'lida fidokorona mehnatini ayamastligini amalda isbotlab bergan.

Buyuk so'z san'atkori, qolaversa, zabardast olim hisoblanmish Alisher Navoiy ona tili qurilishidan to'la xabardor bo'lgan, ayniqsa, uning lug'at boyligini mukammal bilgan. U eski o'zbek adabiy tili so'z xazinasining asosini tashkil etuvchi asl turkiy so'zlar ma'no nozikliklarini yaxshi farqlagan, ulardan asarlarida unumli va o'rinli qo'llagan, matn tarkibidagi badiiy-estetik o'rnini ochib bergan.

¹⁷Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov N. O'zbek tili stilistikasi. T., “O'qituvchi”, 1983, 58-b

O'zbek tili qipchoq shevalari bo'yicha yirik mutaxassis X.Doniyorov "J-lovchi dialekitlarni o'zbek adabiy tili bilan o'rganish tajribasidan" nomli monografiyasida Navoiyning "Muhokamat ul - lug'atayn" asari tilini qipchoq shevalari va hozirgi o'zbek adabiy tilida muqoyasa qilishga maxsus bob ajratgan. Olim Navoiyning o'z ilmiy asari bilan o'zbek tili grammatikasi, stilistikasi, amaliy stilistikasi asoslarini yaratgani, bizga ilmiy va badiiy asarlar tili, ularning uslubi, badiiy ifoda vositalari qanday bo'lishi lozimligini amalga ko'rsatib berganini ta'kidlaydi. "Muhokamat ul- lug'atayn"da keltirilgan 100 ta fe'lning 69 tasi hozirgi o'zbek tilining qipchoq shevalarida ishlatilishi, shulardan 54 tasi faol hisoblanishi, 30 tasi faqat qipchoq shevalarida uchrashiga diqqatni qaratadi. Navoiy asarlari tilining fonetik, morfologik a leksik xususiyatlari qipchoq shevalari materiallari bilan solishtiradi. Ikki til munozarasiga bag'ishlangan ilmiy asardan o'rin olgan qarindoshlik nomlari, uy hayvonlari va qushlar, qush ovlovchilar, uy anjomlari, buyumlari, ot egar – jabdug'i, chodirlar, oshxona jihozlari, kiyim – kechak, oziq – lvqat va hokazolar nomlariga oid so'zlarning asosiy qismi qismi qipchoq shevalariga taalluqliligi ta'kidlagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Alisher Navoiyni oliy martaba sohibi, qobiliyat egalarining buyuk homiysi, o'zbek tili va adabiyotining bayroqdori sifatida tarannum etadi va Navoiy tiliga Andijon shevasi asos bo'lgan, deydi.

"Andijon eli turkdur. Shoh va bozorasida turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam birla rostdur. Ani uchinkim, Mir Alisher Navoiyning musanafoti Hirida noli'u navo topubdur, bu til biladur. Elining orasida husni xili bordur".¹⁸

Tilimizning tom ma'nodagi asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy o'zining badiiy adabiyot, adabiyotshunoslikka oid ulkan ijod namunalarini o'zbek tilida ommaga taqdim etdi.

¹⁸O'rinboyev B. Turkiy xalqlar adabiy tarixi. Samarqand,, 2002. 62-bet.

Uch til, ya'ni fors, arab va turkiy tillar o'rtasida qizg'in kurash borayotgan bir paytda Navoiy bu nodir asarlarni o'zbek tilida yozishining o'zi ulkan bir jasorat edi. O'zbek tilida turli xil janr va uslubda asarlar yozib bu til o'zining grammatik tuzilishi, va boy lug'at fondiga ega ekanligini amalda isbotlab berdi.

Alisher Navoiy asoslab bergan adabiy til qanday negiz asosida paydo bo'lganligini yetuk tilshunos B.O'rinboyev quyidagicha e'tirof etadi.

1. O'sha davrda arab, fors va ona tili kabi uch tilning kurashi davom etmoqda edi:¹⁹

Alisher Navoiy zamonasida ilmiy asarlar arab tilida, badiiy asarlar fors tilida yozilar edi.

2. Ma'lum darajada Sharqi Turkiston tili, ya'ni uyg'ur tilining ta'siri mavjud edi.²⁰ Mo'g'ullar hujumi davrida ham adabiy til sifatida Sharqiy Turkiston tili asosiy rol o'ynadi. Qadimgi uyg'ur tiliga xos bo'lgan bir qancha morfologik, leksik, fonetik unsurlar Navoiygacha uchraydi. Hatto XIV – XV asrlarda ko'chirilgan “Baxtiyornoma”, “Me'rojnoma”, “Tazkirai avliyo” kabi uyg'ur yozuvidagi asarlar paydo bo'ldi. Hatto 1469 yilda tuzilgan Umar Shayx yorlig'i ham uyg'ur tilida yozilgan. Bunday holat ma'lum darajada o'sha davr adabiy tiliga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

3. Bir – biridan farq qiladigan hududiy dialektlar mavjud edi. Alisher Navoiy davrida turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar turli- tuman bo'lgan va turli shevalarda bir-biriga ta'sir qilib, adabiy tilga ham turli unsurlar kiritib borgan. Buning ustiga til guruhlarining aniq nomlari yo'qligi masalani yanada xiralashtiradi. Alisher Navoiy asarlarida, jumladan, “Mezon ul - avzon” asarida ona tilini turkcha til, ba'zan chig'atoy til, deydi. Turk tili atamasi ostida Alisher Navoiy keng ma'noni ko'zlaydi, ya'ni bu atama bilan arab va fors tilidan farq qiluvchi turkiy tilni ataydi. Chig'atoy tushunchasi Navoiyda tor ma'nodadir. “Ki turkiy qavmlar jo'jidur, inaq va chig'atoy”.

¹⁹Шчербак А.М. Грамматика стараязбекского языка. Москва Л., 1962, 35-б.

²⁰Боровков А.К. Навои как основоположник узбекского литературного языке. II. Алишер Навои. М. –Л., 1946, 97-бет .

Xusayn Bayqaro bevosita Navoiyning tashabbusi va maslaxati bilan o‘zbek (turk) tilini rasmiy adabiy til deb farmon chiqargan va bu haqda quyidagicha fikr yuritgan, “Navoiy turk (o‘zbek) tilining o‘lgan jasadiga Masih anfosi bila ruh kiydirdi”.

Har qanday milliy til kabi o‘zbek tili ham o‘zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir.

E’tirof etish lozimki, jamiyatda sodir bo‘lgan har qanday o‘zgarish yoki yangilik o‘z ifodasini tilda, ayniqsa, uning so‘z boyligida topadi. Shunday ekan, lisoniy hodisalarni jarayonlarni tahlil etishda tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yuz bergan voqeliklarni nazardan qochirmaslik, ularning til shakllanishi va rivojida muhim o‘rnini belgilash talab qilinadi. Zero, xalq tarixini til tarixi va aksincha til tarixining xalq tarixi ekanligi allaqachon, o‘z isbotini topgan.²¹

²¹Кодухов В.И. Общее языкование. М., 1977, с 7-8.

I BOB. ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA QO‘LLANGAN XONA VA OSHXONA JIHOZLARI BILAN BOG‘LIQ UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARINING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining quyidagicha mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘zining noyob iqtidori bilan butun bashariyatga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Qanchadan qancha olim-u fozillarni o‘ziga maftun ayladi. Besh asrdan buyon Navoiy ijodi ilmiy jihatdan tahlil qilmoqdAlisher Bugungi kunga kelib Navoiyning noyob iqtidorini ko‘rsatish tadqiqodchilarning asosiy vazifalaridan biridir.

Alisher Navoiyning gultoji bo‘lgan “Xamsa” asarida ijodkorning badiiy mahorati naqadar yuksak ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

“Xamsa” da yoritilgan, e’tirof etilgan har bir mavzu o‘zining ifoda yo‘sini bilan ajralib turadi. Shunday mavzulardan biri uy-ro‘zg‘or buyumlarining temantikasi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan jihat hisoblanadi. Shu boisdan uy-ro‘zg‘or buyumlarini 4 ma’naviy guruhga ajratish mumkin:

Xona jihozlari;

Duradgorlik buyumlari;

Oshxona anjomlari;

Tikish-bichish buyumlari.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoining badiiy, tarixiy, ilmiy asarlarida hayotning turli sohalariga taaluqli bo‘lgan so‘z va atamalar o‘ziga xos uslubda ifoda etilgan. Bu, albatta, mutafakkir dunyoqarashidagi kenglik, turli sohalarga bo‘lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g‘oyalar bilan yog‘rilgan tabiiy fanlarga nisbatan ham, ilm-fanning biror sohasiga nisbatan ham chuqur mulohazakorligidan ham darak beradi.

O'zbek tilshunosligida turli sohalarga doir so'z va terminlar leksik nuqtayi nazardan maxsus o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tili tarixini to'liq shakllanish davri Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq mukammal, umumlashtirilgan leksikologik tadqiqotlar ko'p emas. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixini kompleks tadqiq etish o'z-o'zidan, ayniqsa, fan sohasida, ijtimoiy va tabiiy ilmlar bilan bog'liq xalqimizning ma'naviy merosini tiklash, chuqur o'rganish vazifalarini keltirib chiqaradi.

Shoir asarlarida turli xil bahoga aloqador bo'lgan terminlar o'z va ko'chma ma'nolarda go'zal ifodasini topgan. Chunonchi, diniy-tasavvufiy, afsonaviy, harbiy atamalar, kishi ismlari, tahalluslar, inson ta'na a'zolari atamalari, unvon, daraja va huquqqa oid so'zlar, **uy-ro'zg'or**, kiyim-kechak, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, oziq-ovqat, ob-havoga oid nomlar, jo'g'rofiy, astronomik tushuncha va osmon jismlari atamalari, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, qush nomlari, mayda jonivorlar, o'simlik, daraxtlar, kon bilan bog'liq nomlar, sport o'yinlari, o'yin turlari va cholg'u-asboblarning atamalari, tilshunoslik, adabiyotshunoslik terminlari, poetik so'zlar va boshqalar. Alisher Navoiy o'z asarlarida turli xil atamalardan foydalanar ekan, bundan ko'zlangan maqsad asarning bo'yoqdorligini, estetik ta'sirchanlikni ta'minlash, umuman badiiy qiymatini oshirish bilan bilan birga o'quvchi ma'lum soha bo'yicha ma'lumot berish yoki shu yo'l bilan kitobxonni bilim olishga targ'ib qilishdir. Shoirning ma'rifatparvarlik borasida tutgan bu yo'li uning daho san'atkor ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Alisher Navoiy badiiylikni ifodalashda o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlardan foydalangan.

Ta'kidlash lozimki, Navoiy asarlari tilida iste'molda bo'lgan so'z boyligining katta qismini sohaviy terminlar tashkil etadi. Muayyan bir tushunchaning turli tillardagi so'zlar bilan ifodalanishi, albatta, Navoiyning so'z boyligidan dalolat beradi. Bizning tadqiqotimiz obyektibo'lgan uy-ro'zg'or buyumlariga oid terminlar borasida ham shunday fikr yuritish

mumkin. Mohir soʻz ustasi oʻz asarlarini yozishda, avval, butun amaliy tadbir va ilmiy mulohazalarni bir joyga toʻplab, tarixiy faktorlarga, manbalarga murojaat qilgan. Badiiylarning eng yuqori darajada ifodalanishini nazarda tutib, oʻxshatishlardan, tabiat hodisalarini ahli basher, yaʼni jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti bilan bogʻliq badiiy kashfiyotlar yaratishga kirishgan. Shoirning har bir nazmiy va nasriy asarlarida goʻyo mavzuga aloqador boʻlmagan soʻzlar ishtirok etgandek tuyulsa-da, uning yashirin maʼnoli ifodalari Sharq badiiy sanʼatlar tasvirida oʻrinli, zarur soʻzlar sifatida ishlatiladi. Alisher Navoiy oʻz asarlarida oʻzbek tilining ichki imkoniyat va boyligidan nechogʻlik sanʼatkorlik bilan foydalangan boʻlsa, lugʻat tarkibining oʻzlashgan qatlam tizimiga aloqador hodisalarni ham ana shunday mohirlik bilan qoʻllaydi.

1.1. Xona jihozlari bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlari

Kishilik jamiati paydo bo'lib rivojlana boshlagandan oila, xo'jalikka tegishli anjom-ashyolar zarur bo'lgan. Bunday anjom-ashyolarning ba'zilar turli davrlarida turlicha nomlar, shakl ko'rinishlarga ega bo'lgan. Biz ajdodlarimizning turmush tarsi haqidagi ma'lumotlarni, albatta, har qaysi davrlarda yozilgan tarixiy, adabiy manbalardan bilamiz, o'rganamiz. Jumladan, Navoiyning "«Xamsa» asarida ham bir qancha xona jihozlari bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlari nomlari qo'llangan. Quyida shularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Qandil, ket(kat), sanduq, gilem, bo'ryo.

Ket yuzida to'shak solib necha qot,

Anda yetkurdi zori xastandi bot. (XXVII.229.)

(Karavot ustiga bir necha qavat to'shak-ko'rpa solib, tezda u zor xastani shu yerga yotqizdi.)

Ket/ kat-taxt; kursi (uxlash uchun) (129)*

Ki bu **sanduq** sirrin kimsa bilmas,

Kalidi yo'qturur, **qufli** ochilmas. (F.SH.XIX.110.)

Gilem-gilam; Gilam-jun, ipakdan to'qilib yerga, uy ichiga to'shaladigan uy jihozi. **Bo'yro**-bo'yra Bo'yra –tozalangan qamish cho'pidan yasalgan to'sham Alisher Uy ichiga to'shaladi.

Yig'ib kishvar ahliga ayvonimga,

Yig'ilg'onni o'lturtqil **xoning Alisher** (SS.LXXX.459.)

Xon-dasturxon.

Balki oltun lagan bila **qandil**,

Borcha topti temur bila tadbil.

Chun ne but qoldiyu ne tashtu lagan,

Xoja arz etti xorxori vatan.(SS.XXIII. 167.)

Lagan(forscha)-tog'ora,idish.

Alisher Navoiyning "Xamsa"asarida qalamga olingan mavzular juda ko'p Jumladan: Navoiy qo'llagan xona buyumlari bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlarining nomlari alohida ajralib turadi.

Shoir uy- ro'zg'or buyumlarini qo'llashda turli xil o'xshatish va sifatlashlarga murojaat qiladi.Sharqdagi an'analarini, urf- odatlarini, ijodkor mahoratini, shaxsning holatini, jamiyatning umumiy ko'rinishini aks ettirishda, asar badiiyligini oshirishda uy- ro'zg'or buyumlaridan foydalangan. Jumladan: **kosAlisherlagan,tugma, parda, sham, tesha, oyna, qandil** kabi bir qator uy-ro'zg'or buyumlar shular jumlasidandir.

Hazrat Navoiy ijodiga nazar tashlasak, juda ko'p o'rinlarda qandildan foydalaniladi. Shoir ta'birida **qandil** baland osmon ma'nosida kelib, Nizomiyning masjidiga qandil, ya'ni baland osmon uning masjidiga qandil, nur sochuvchi quyosh esa o'sh qandildagi sham:

Masjidi **qandili** spehri asir

Shula bu **qandil** aro mehri munir.(10)

Keyingi baytlarda esa shaxsga qiyoslanadi. Sham kabi u (Nizomiy) bazmlarga nur sochadi bazmlarni yoritadi-yu, o'zi esa kuygani kuygan:

Sham kibi bazm furo'zonda ul

Bazm furo'zonda sozanda ul.(12)

Ijodkor insonning ko'nglini oyinaga qiyos etadi. Ya'ni ko'ngil misoli oyina kabidir:

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi

Ko'ngli maoniy yuzi **oyinasi**.

Uning ko'ksi—haqiqat durlarining xazinasida ko'ngli esa ma'no yuzlariga **oyinadir**.

Demak, bu yerda ham haqiqiy pok insonlarning ko'ngli ko'zguga qiyos qilinishini shunday talqin qilmoqda oinasida jon surati jimir- jimir etib

jilva etadi; unga oqib kelib quyiladigan ariqni esa shu oynaning dastasi desa bo'ladi.

Qilsam etib boshtin-ayoq jon ani

Hajlai (parda) noz ichra xirmon ani

Ushbu paytda esa parda jihozi yor harakatidagi holatga qiyoslanmoqda ya'ni jonimni boshdin-oyoq unga bag'ishlab, noz pardasida xiromon yurishini istardim deya ifodalamoqda Alisher Navoiy nazarida ustozlar, ilmi toliblar mash'al, sha'm kabi yonib o'zgalarga nafi tegadigan kishilardir:

Sham kabi bazmfuro'zanda ul

Bamfro'zandav-u so'zanda ul

ya'ni Nizomiy aqli donishlikda tengi yo'q betakror shaxs shu sababli u shamday bazmlarga ya'ni bilimlar bazmiga nur sochadi, bazmlarni yorotadi-yu, o'zi esa kuygani kuygan.

Shoir ijodi rang-barangki, uni izchil o'rgangan sari yangi qiyofalar kashf etila boradi.

Navoiy ko'ngil ta'rifida esa uy- ro'zg'or buyumlarining nomini "**Hayratul abror**"da quyidagicha tilga oladi:

Masjidi **qandili** sipehri asir

Sho'la bu **qandil** aro mehri munir(10)

Baland osmon uning masjidiga qandil, nur sochuvchi quyosh esa po'sha qandildagi sham.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi

Ko'ngli maoniy yuzi **oyinasi** (219-bet.)

Uning ko'ksi haqiqat durlarining xazinasini, ko'ngli esa ma'no yuzlariga oynAlisher

Parda yasab holati pinhon uchun

Safha yozib satr ila kitmon uchun (220-bet)

Bu pardani u yashirin holatlarni berkitish uchun yasagan; sahifalar ham shu holatlarni sir tutish uchun to'ldirilgan.

Bo'lsa xazu atlasu iksun libos

It juli qilmoqqa yarar ham **palos** (222-bet)

Ipak va atlasdan hashamli kiyimlar bo'lganidek, namat to'qimalari ham itning ustini yopish uchun kerak-ku.

Zohid etib yig'lag'udek hol anga

Kiydirubon eski qaro **shol** anta (227-bet)

Qiy nab, yig'lagudek ahvolga solib, ustiga eski qora shol yopishdi.

Qilsam yetib kboshtin ayoq jonani

Hojlam noz ichra xiromon ani (227-bet)

Jonimni boshdin oyoq unga bag'ishlab, noz pardasida xiromon etishini istardim.

Berdi sahar hullasi zarrishta tob,

Qolmadi tun **pardasidan rishta** (230-bet)

Saharning ipak pardasidan oltin iplar tarala boshlashi bilanoq tun pardasining iplari chidash bera olmay

Jilva bo'lub gum kecha tovusidan,

Nur ketib gullari **ko'zgusidan** (230-bet)

Tun tovusidan jilva yo'qolib, uning gullari oiyati ham yiltirishdan to'xtadi.

Dev ila shayton o'rib ichinda jo'sh

Tahg'a maloik paridin **pardapush** (251-bet)

Ularning ichida dev bilan shayton qaynaydi, tani esa malayleklarning to'kilgan pat bilan pardalangan.

Jilvagar ul **ko'zguda** jon surati (232-bet)

Dasta bo'lub anga ariq hayati

Ularning oinasida jon surati jimir-jimir etib jilva qiladi; unga oqib kelib qo'yiladigan ariqni esa shu oinaning dastasi desa bo'ladi

Manga aylab g'amu mehnatni munis,

O'zi har uyda bo'lg'ay **shami** majlis.

Sham bu aslida yorug'lik beradigan buyum, bu barchamizga ma'lum. Lekin Navoiy ushbu misrada oddiy yorug'lik beruvchi **sham** deb emas, balki boshqacha ya'ni ko'chma ma'noda qo'llaydi. Boqiy tuyg'u ishqqa murojaat qilib, menga g'amu azob-uqubatlarni yor etib, o'z har uyda majlislarning shami har guruhda, kerak bo'lsa istalgan to'dada ishq mavzusi birinchi qalamga olinib ta'riflanadi, tahlil qilinadi, muhokama qilinadi deb ta'kidlanmoqda Alisher:

Sorig' gul uza sabuhi yomg'ur,

Gul **sham'i** havoyi gulshan aylar,

Gulshanni fug'uri ravshan aylar.(Layli va Majnun, 56-bet)

Navoiy xona jihozlarini mohirlik bilan misralarda qo'llaydi. Har bir misra tarkibida qo'llangan buyum nomi alohida-alohida vazifani bajaradi.

Parda yasab holati pinhon uchun

Sahva yozib satr ila ketmon uchun.

Navoiy ustoz, do'sti Abdurahmon Jomiy ta'rifida keltirilgan ushbu misrada uning noyob iqtidor egasi ekanligini ta'kidlab, bu pardani u yashirin holatlarni berkitish uchun yasagan; sahifalar ham shu jihatlarni sir tutish uchun to'ldirilgan, deb buyukligiga ishora etmoqda yoki bo'lmasa, keying misraga e'tabor beraylik buyum nomi yana bir vazifada kelmoqda Alisher

Sham' kibi bazm furo'zanda ul

Bazm furo'zanda ul

Bu yerda esa buyuklar, ya'ni Nizomiy aql-u donishlikda, ya'ni bilimdonlikda tengi yo'q bo'lib, o'zlarga foyda keltiruvchi va undan barcha kishi foydalanishi mumkinligi e'tirof etilib, sham'ga qiyos qilinmoqda. Alisher Sham' kabi bazmlarga nur sochadi, bazmlarni yoritadi-yu, o'zi esa kuygani kuygan.

Alisher Navoiy nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi eng yorqin siymolardan biridir. Bu buyuk bobokalonimiz qoldirgan ulkan merosda olam va odamga bog'liq bo'lgan hodisalar favqulodda teran nigoh bilan tahlil etilgan. "«Xamsa» ning har bir dostonida uy-ro'zg'or buyumlari nomini bildiruvchi so'zlar ko'p o'rinlarda qo'llangan. Uning ishq mavzusidagi mashhur asari "Layli va Majnun" da ham xona jihozlarini anglatuvchi uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining qo'llanishi ham juda faoldir. Ushbu so'zlar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanib badiiylilikni oshirishda, ma'no kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Ey mash'ali mehr **sham'i** johing,

Bal mehru sipehr xoki rohing (Layli va Majnun, 15-bet)

Gardun chiqarib kecha **palosin**,

Davrong'a yopib sahar libosin. (Layli va Majnun, 19-bet)

Mundoq kecha **sham'i** jilvasozi,

Ne sham'iki, sham'ali tirozi. (Layli va Majnun, 20-bet)

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan olgan so'z sa'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u

Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasAlisher

Navoiy misralarida qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlaridan eng faoli "parda" so'zi bo'lib ko'p o'rinlarda ko'chma ma'nolardada qo'llanib, hayo, visol vat un ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

Lo'la anga fayz novdoni,

Andin oqib obi zindagoniy(Layli va Majnun, 30-bet)

Ey ilm yuziga mash'alafruz,

Fayz **oynasiga** sayqalanduz.(Layli va Majnun, 31-bet)

Xona jihozlari bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlari orasida "oyna" so'zi ham juda faol qo'llanishda bo'lib, qalb, go'zallik ma'nolarida qo'llangan.

Kim holati hazm aro erur fard,

Durposh bayoni nazm parvard.(Layli va Majnun, 38-bet)

Yo g'am tuni o'chsa **sham'i** anvar,

Parvonadin o'lmas uy munavvar.(Layli va Majnun, 42-bet)

Haq ochib o'z olidin niqobin,

Yetmish ming **pardai hijobin**.(Layli va Majnun, 23-bet)

Na'layniddin aylabon malak hal,

Surtarga sudo bo'lsa **sandal**.(Layli va Majnun, 30-bet)

Toriki yopib libosi oni,

Jon **pardasida** ichra tor yanglig'.(Layli va Majnun, 49-bet)

Gulbun chamanining ittisoli,

Ishq ahlig‘a **pardai** visoli. (Layli va Majnun, 60-bet)

Mahvash ishidan chup**arda** q‘opti,
Ikkisining ollida yer o‘pti.(Layli va Majnun, 63-bet)

Ul choqqachakim, sipehri xudkom
Ofoq uza yoydi **pardai** shom(Layli va Majnun, 73-bet)

Bal mash‘alai farog‘ sensen,
Yo gavhari **shabcharoq** sensen.(Layli va Majnun, 74-bet)

Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmuni Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam uchraydi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning onggu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi.

Muhabbat nomi durdasham uldur,
Hamono Zinda Jomi uldur.
363-bet. Manga aylab g‘amu mehnoyni munis,
O‘zi har o‘yda bo‘lg‘ay **shami** majlis (366-bet)

Menga g‘amu azob-uqubatlarni yor etib o‘zi har uyda majlislarning shami bo‘lib yuradi.

Anga chun Pardalar keynidan ul oy
Takallum birla bo‘ldi korfarmoy

Odatda parda ko‘proq maxfiylik belgi sifatida ifodalanadi. Lekin bu yerda esa shoir buyum nomini hech qanday ko‘chma emas, o‘z ma‘nosida qo‘llangan. U oy bir necha qavat parda orqasida turib Farhodni so‘z bilan ish buyurar edi.

Anta chun**pardalar** qinidan ul oy

Takallum birla bo‘ldi korfarmoy (373-bet)

Ul oy bir necha qavat parda orqasida turib, Farhodga so‘z bilan ish bajarar edi.

Jom sanj o‘lub izidin **Tarozu**,

Aqrab topib anda no‘sh doru.(Layli va Majnun, 22-bet)

Qo‘lida sochim bor **charx** aro tun,

Yo‘qkim, boshima kelib qaro kun. (Layli va Majnun, 13-bet)

Berur mehnat tuniga **n** yog‘du

Chu o‘chti shu‘lasi bo‘ldi qorong‘u (374-bet)

Mashaqqat kechalariga sham yorug‘lik beradi biroq shu‘lasi o‘chishi bilan qorong‘uluk chiqadi.

Shabistonida ul **sham** o‘ldi ravshan

Ki bazmi gullaridan bo‘ldi gulshan (383-bet)

Chunki uning kechki istirohatgohi farzand sham‘i bilan ravshan bo‘lib, bazmida ochilgan gullardan ya‘ni gulshan yuzaga keldi.

Yuqorida xona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini Navoiyning buyuk “Xamsa” asari misolida ko‘rib o‘tdik.

Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, avvalo yoshlarimizni qanchalik ko‘p baxramand etsak, milliy ma‘naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma‘rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

1.2.Oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari

Navoiy asarlarining mangulikka dahldor va umrboqiy bo‘lishining sabalardan biri shundaki, u o‘z asrlarida “barcha mahluqotlarning toji” bo‘lgan insonni kuylaydi, uning quvonchlari-yu tashvishlarini, muammolari-yu orzu umidlarini tarannum etadi. Ona tilimizga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asrlari bilan kirib keladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida buyuk Alisher Naavoij shunday ulug‘ bir dahoki, zamona undan bizni qancha uzoqlashtirmasin, uning salobatli nuroniy siymosi shu qadar ulkanlasha boradi. Navoiy badiiy ijodining barcha sohalarida hayratomuz meros qoldirdi. Shulardan yana biri oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlaridir.

Navoiy ijodida oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining qo‘llanish doirasi ham juda faol bo‘lib, turli ma‘no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilgan.Shulardanibriq, ko‘za, ayog‘, lagan, tasht, tos kabilar faol qo‘llangan.

“Sab’ai sayyor” dostoning XXIII bobida qallob zargar Zaydning zindonband etilishi bayon etilgan o‘rnida shunday misralar bor:

Zaydg‘a rotibaki, bo‘ldi daqiq,

Non iki qurs edi, su bir **ibriq**. (SS.XXIII,162) 1.

Ibriq –bo‘yni uzun ko‘za*

Judo qilsa xarmuxra firizadin,

Butun chuni o‘lsa sinuq **ko‘zadin** .(SS.XXVIII.125)

(**Feruzani** eshakmunchoqdan va butun chinnini siniq ko‘zadan farq qilsAlisher)

Ko‘za –suv solish va tashish uchun ishlatiladigan, qorni keng bo‘g‘zi ingichka, bir tomonidan dastasi bor idish.

Yana bir **ayogʻ** ham olib badsigol,
Ki ul zarf bor erdi yashil
safol.(SI.XXI.110.)2.

(Niyati buzuq (askarboshilardan biri) bir necha shox oʻtinni, toʻrva toʻla somon va yashil sopoldan yasalgan may idishini olib chiqib ketayotgan ekan.)

Ayogʻ-may idishi.

Balki oltun **lagan** bila qandil,
Borcha topti temur bila tadbil.
Chun ne but qoldiyu ne tashtu lagan,
Xoja arz etti xorxori vatan.(SS.XXIII. 167.)
Lagan(forsha)-togʻora,idish.
Tasht- katta mis togʻora(275)*

Qandil (arabcha)- chiroq, chilchiroq.Bir necha sham qoʻyiladigan osma shamchiroq.

Toslari zarnigoru mehr misol,
Siymun dastadin boshida hilol.(SS.XXVI.213.)

(**Toslari** zarnigor va quyosh misol boʻlib, uning dastalari xuddi oy singari kumushrang edi.)

Tos forsha soʻz boʻlib, “ichi chuqur lagan, togʻora, jom” demakdir. Bu asosan, kir yuvish, yuvinish uchun ishlatiladigan katta metal idishdir.

Xalda dema, balki mudavvar **lagan**

Shami aning mashʼali anjuman.

Shoir ko'ngilni o'zgacha o'xshatishlar vositasida tasvirlaydi. Ko'ngil xalqa ham emas, aylana **lagan** edi: uning shami esa majlislarning mash'ali edi deya e'tirof etadi.

Agar ko'ngil turli tashqi ta'sirlardan ozorlansa, achchiqlansa yanada o'zgacha tusga kiradi:

El boshining **kosasidan jom** anga
May yerida qon bo'lub oshan anga

Uning may ichadigan **kosasi** odamlarning boshidan; ichadigan esa may o'rniga qon deb e'tirof etadi:

Halqa dema, balki mudavvar **lagan**
Shami aning mashalai anjuman (235-bet)

Yo'q u halqa ham emas, balki aylana lagan edi; uning shami esa majlislarning mashali edi.

El boshining **kosasidan** jonanta
May erida qon bo'lub oshon anta (236-bet)

Uning may ichadigan kosasi odamlarning boshidan ichadigani esa may o'rniga qon.

Navoiy "Xamsa" sida qo'llangan uy-joy, ro'zg'or buyumlarining turli o'ziga xosliklar bilan qo'llanishi, baytlarda ko'zga tashlanadi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari misralar tarkibidaturli vazifalarda qo'llangan.

Navoiy o'z ustoz Jomiy ra'rifida keltirilgan ushbu misraga e'tabor qarataylik:

Alar ishqida jo'sh aylab iki **jom**,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.

Odatda jom ya'ni, qadah may, sharob ichiladigan idish demakdir. Navoiy aytmoqchiki, men ularning (ya'ni o'zidan oldingi buyuk

Xamsanavislar) ishqida ikki qadah may ichib, so'ng Jomiy sharobining madhiga kirishay. Bu misrada uy-ro'zg'or buyumi ko'chma ma'noda qo'llangan.

E'tibor qilaylik, uning boshi hamma narsani tark etish tojidan bahramand bo'lib butun birolam shu tojiga qadalgan tugmadek deya Jomiy iqtidori va iste'dodi baland ekanligi e'tirof etilmoqdaAlisher

Chu piri dayr may qildi havola

Icharman gar erur gardun **piyola**

Navoiy ushbu misrada qo'llangan uy-ro'zg'or buyumi nomini ko'chma ma'noda qo'llab, mubolag'aning ig'roq deb nomlangan turini o'z joyida mahorat bilan qo'llagan. Navoiy demoqchiki, agar mayxona piri menga may uzatar ekan, piyolasi osmon bo'lsa ham, ichib yuborganim bo'lsin deb t a'kidlamoqdaAlisher

Itik teshalarig'a har qaro tog',

Pichoqolinda andoqkim sarig' yog'. (389-bet)

Yig'ochakim qattiqroq bo'lsa zarra,

Pichoq yetkach bo'lub andoqki arra (390-bet)

Agar yog'och bir oz qattiqroq bo'lsa, unga pichoq urilsa pichoq arra bo'lib qoladi.

Chu piri dayr moyb qildi havola

Icharmen gar erur gardun **payola** (365-bet)

Agar mayxona piri menga may uzatar ekan, piyolasi osmon bo'lsa ham, ichib yuborganim bo'lsin.

Ijodkor ana shu uy uy-joy, ro‘zg‘or buyumlari vositasida turli o‘xshatmalarni kashf qiladi hamda asar voqeyligini badiiy bo‘yoqlar vositasida aks ettiradi.

Dostonda keltirilgan oshxona anjomlari ham asar badiyatini oshirishda ma’lum bir vosita hisoblanadi.

Halqa dema, balki munavvar **lagan**

Sham’I aning mash’alai anjuman

Buyuklarning, ko‘nglini, go‘zallikni har qanday holatni ta’riflash faxr va iftixor hissini uyg‘otadi. Bu misrada Navoiy ko‘nglini ta’riflab shunday deydi: “U halqa ham emas, balik aylana lagan edi, uning sham’i esa majlislarning mashalidir.”

Yana shoir ko‘ngil ta’rifida quyidagilarni bayon etadi:

El boshining **kosasidin**jon anga,

May yerida qon bo‘lub oshom anga

Uning may ichadigan odamlarning boshidan ichadigani esa may o‘rniga qon deb ta’kidlaydi.

“Xamsa”da tikish -bichish buyumlari boshqa so‘zlar qatori misra tarkibida kelib anglashanayotgan fikrni yanada ochiqroq ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Daryo sanga tolibi navola,

Kishti kafida **yig‘och payola** (Layli va Majnun, 11-bet)

Sorig‘ gul uza sabuhi yomg‘ur,

Oltun **tabak** icha ko‘rguzur dur.(Layli va Majnun, 57-bet)

Nargis olur o‘lsa badodin kom,

Noranj terisidin yasar **jom**(5 Layli va Majnun, 8-bet)

Alar ishqida nush aylab iki

Tutay Jomiy mayi madhin saraj**om** (363-bet)

Men ularning ishqida ikki qadah may ichib, so‘ng Jomiy sharobining madhiga kirishay.

Ibriqi vuzusi bahri gardun,

Har qatraki tomsa durri maknun.(Layli va Majnun, 30-bet)

Demak, shundan ko‘rinadiki, oshxonaga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari nomini ham zo‘r ustalik bilan qo‘llagan mohir so‘z san’atkoridir.

II BOB. ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARIDA QO‘LLANGANTIKISH-BICHISH VA DURADGORLIK BILAN BOG‘LIQ UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARINING LEKSIK- SEMANTIK TAHLILI

“Bugungi yangi o‘zbek davlatini barpo etar ekanmiz,-degan I.A.Karimov,-biz tarixdan, ajdodlar merosidan, ularning ruhi pokidan, Turkiston xalqlarining qadriyatlaridan bahramand bo‘lishimiz tabiiydir”²² Bu borada Alisher Navoiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi.Navoiyning barcha o‘lmas asarlarida inson mohiyati, uning ijtimoiy vazifasi, burch va mas’uliyatlari imkoniyat va ojizliklari yuksak badiiy ohanglarda tasvirlangan.Uning ijodini har tomonlama o‘rganish doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.Darhaqiqat, jonajon vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ngmamlakatimizda tilshunoslik ilmining keyingi taraqqiyoti til nazariyasi bilan bir qatorda uning amaliy tomonlarini ham o‘rganishni talab qilmoqda.Ana shunday amaliy mashg‘ulotlardan biri badiiy asarning til xususiyatlarini o‘rganishdir.Bizning ushbu tadqiqotimiz ham Hazrat Navoiyning buyuk “Xamsa” asarining til xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlanadi.

Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharaffiddinov uqtirib o‘tganidek:”Adabiyot o‘quvchini tarbiyalash uchun uning ong, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga tuyg‘ulariga ham ta’sir etishi kerak. Shunday asarlarga chinakam san’at namunasi deb atalish huquqiga ega”²³

Alisher Navoiy hayoti va ijodi, uning qoldirgan ma’naviy meros insoniyat uchun bebahodir. Navoiy ijodi va ijtimoiy faoliyati insoniyat va ma’naviyatga, el-yurtga xizmat qilishning betakror namunasi. U

²²Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1994. 129-bet.

²³Sharafiddinov O. Iste’dod jilolari. Toshkent, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976, 150-bet.

o‘zining butun hayotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligi va farovonligini ta‘minlashda, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san‘at va adabiyot taraqqoyotiga bag‘ishladi. Shu boisdan ham, davlatimiz rahbarining “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” asaridagi “Ma‘naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar” nomli bu b‘olimida bu ulug‘ dahoga alohida o‘rin ajratilganligi bejiz emas. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Navoiy ijodida keng o‘rin egallagan sohaviy terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shulardan yana biri tikish bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari nomidir.

2.1. Tikish-bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlari

Alisher Navoiy ijodining betakrorligi shundaki, shoir yaratgan har bir misradagi so‘zning ma’lum bir vazifada qo‘llanganidadir.

Buyuk ijodkor yaratgan merosning o‘qimishlilikini ta’minlovchi vositalar dostonida qo‘llangan tikish-bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining bir nom ostida turli vazifada kelishidadir.

Navoiy sultonlar haqidagi bobda tikish-bichish bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumi nomini sultonlarni ogohlikka da’vat etish, maqsadida qo‘llangan:

Garchi sinuq **igna** haqqunosdir, Bag‘rini aro xanjari olmosdir.

Ya’ni agar birovdan tortib olganing siniq **igna** bo‘lsa ham, u yerda olmos xanjar bo‘lib bag‘ringga qadaladi.

Keyingi baytlarda esa bitta nom asosida turli ma’nolar anglashilayotganini ko‘rishimiz mumkin:

Bo‘lsa haqiqat guharidin yiroq,

Rishta so‘zin so‘zlmagan yaxshiroq.

Abdurahmon Jomiy ta’rafida keltirilgan ushbu misrada so‘zning ma’nosi va bajaradigan vazifasi naqadar to‘g‘ri va mukammal bo‘lishini aks holda uning qadri yo‘qligiga ishora qilmoqda ya’ni biroq fikr haqiqat gavharidan uzoq bo‘lsa, unga ip topish to‘g‘risida so‘zlamagan yaxshi.

It kabi chun pastlig‘im chog‘ladim,

O‘zni biyiklar **ipiga** bog‘ladim

Navoiy ushbu baytda esa tikish-bichish nomini vosita ma’nosida yoki buyuklar ustozlar izidan borish bir baxt ekanini, ularni bosgan qadamlari qutlug‘ qadam qutlug‘ qadam ekanligini ta’kidlamoqda ya’ni

men o‘zimni it kabi past baholab, o‘zimni ulug‘lar ushlagan arqonga bog‘ladim deya o‘z fikrini ifoda etadi.

Gar etagin tutmoq emas dastrast,
Tushsa Navoiy sari bir **rishta** bas.

Shoir ko‘ngil ta‘rifidagi bobda tikish-bichish nomini pok ko‘ngil egalarining ko‘ngli ham, nzari ham tushmasada shu pok ko‘ngilli insondan Navoiy tomon **birip** tushsa ham mayli bu Navoiyni qanoatlantiradi ya‘ni gar uning (pok ko‘ngilli kishi) etagini ushlash imkoni bo‘lmasa, u vaqtda uning etagidan bittagina ip Navoiy tomon tushsa ham yetarlidir.

Keyingi misralarga e‘tabor qiladigan bo‘lsak, tikish –bichish nomi ma‘lum bir o‘xshatish qiyoslash ma‘nosida kelganini ko‘ramiz:

Sabzaning rangi zumurrad kibi
Rishtasida **tugma** zabarjad kabi

Ko‘ngil ta‘rifida bobida keltirilgan misrada o‘sgan ko‘katlar rangi zumradga, tuk bilan qoplangan tugmalari esa zabarjadga o‘xshaydi.

Navoiy keyigi baytda esa tikishi-bichish nomlarini bir o‘rinda keltirib mahorat bilan joyida qo‘llagan:

Iplar anga rishtai talbis o‘lub
Igna anga siblati iblis o‘lub

Haqiqatan ham riyokor shaxslar haqidagi ushbu baytda tikish-bichish nomlari shaxsning ma‘lum ma‘noda tashqi qiyofasidagi yoki uning shaxs sifatidagi halotini ko‘rsatib berishga harakat qiladi ya‘ni uning to‘qimalari ham yolg‘on ipda to‘qilgan, iblisning mo‘ylabi esa igna vazifasini bajargan.

Shoir bevosita uy- ro‘zg‘or buyumlarini samoviy jismlar bilan bog‘liq holda ham keltiradi:

Charxqakim shixi sanubar yetib
Tugmalarin anjum uchun x‘o etib

Sanubarlarning shoxi osmonga yetgan tugmalari bilan yulduzlarni qalpoqchalardek berkitgan sarv va oqteraklarning safi uzilmay, cho‘zilib ketaveradi.

Bo‘lsa haqiqat guharidin yiroq

Rishta so‘zin so‘zlamagan yaxshiroq.(221-bet)

Biroq fikr haqiqat gavharidan uzoq bo‘lsa, uning ip toppish to‘g‘risida so‘zlamagan ham yaxshi.

Rishtag‘achun zahir erur toru pud

Dursiz anga rangiyu naqshi ne sud.(221-bet)

Ipni topsangu o‘rish-arqog‘I bilan keltirsang-u, yaxshi dur bo‘lmasa, uning chiroyli rang va naqshidan ne foydAlisher

It kibi chun pastlig‘im chog‘ladim

O‘zni biyiklar **ipiga** bog‘ladim (222-bet)

Men o‘zimni it kibi past baholab, o‘zimni ulug‘lar ushlagan arqonga bog‘ladim.

14) Par etagin tutmoq emas dastrast

Tushsa Navoiy sari bir **rishtabas** (230-bet)

Par uning etagini ushlash imkoni bo‘lmasa, u faqtda uning etagidan bittagina ip Navoiy tomon tushsa ham yetarlidir.

Charxqaqim shoxi sanubar etib,

Tugmalarin anjum uchun xud etib (231-bet)

Sanubarlarning shohi osmonga yetgan, tugmalari bilan yulduzlarni qalpoqchalardek berkitgan.

Sabzasining rangi zumrad kibi

Rishtasida **tugma** zabarjad kibi (232-bet)

Bunda o‘sgan ko‘katlar rangi zumradga, tuk bilan qoplangan tugmalari esa zabarjadga o‘xshaydi.

Tugmaki ostida gumon etti jahl

Zahr durur qilg'on oyog'iga mayl (232-bet)

Odamlar tugma deb gumon qilgan narsa oyoqni zaharlovchi
zahar bo'lib chiqdi.

Garchi sinuq **igna** haqqunosdir

Bag'ring aro xankari olmosdir (244-bet)

Agar birovdan tortib olganing siniq igna bo'lsa ham u yerda
olmos xanjar bo'lib bag'ringga qadaladi

Iplar anga rishtai talbis o'lub,

Igna anga siblati iblis o'lub (248-bet)

Uning to'qimalari ham ipidan to'qilgan.Iblisning mo'ylabi esa
igna vazifasini bajargan.

Muzini qarrobai quffor anga

Rishta bo'lub **rishtai** zunnor anga (249-bet)

Bu toshlarning ichidagi so'fisi kofirning may idishiga o'xshaydi,
tasbehning ipi esa zunnorning ipini eslatadi.

Keyingi misraga e'tibor qiladigan bo'lsak, Navoiy bevosita yana
Jomiyning ulug'ligiga ishora qilib, shunday dedi:

Boshikim tark tojiddin barumand,

Bo'lub tojig'a gardun **tugma** monand.

yoki

Eshilgan **rishtasi** tobi vafodin

Teshilgan bog'I hakkoki qazodin.

Ushbu misrada shoir buyum nomini keltirish orqali baytlarning
badiiyligini ochib bergan.Ya'ni buyum nomi ko'chma ma'noda

qo‘llangan.Uning jon iplari vafo tobi bilan eshilgan bag‘ri qazoning o‘ymakori tomonidan keltirilgan.

Jaybi aro **tugma** tiyru Nohid,
Egnida tirozn Oyu Xurshed.(Layli va Majnun, 9-bet)

Bel **rishtai**joni zor yanglig‘,
Jon pardasi ichra tor yanglig‘.(Layli va Majnun, 49-bet)

Hazrat Navoiy merosining til xususiyatini o‘rganish har jihatdan dolzarb mavzu ekanini bugun biz yoshlar qalban his etib, yanada chuqurroq o‘rganib, Navoiy ijodining ochilmagan qirralarini o‘rganaylik va ilm ahliga havola etaylik.

Muhabbat jomini oxirigacha sipqargan va o‘sha fillardan oramizdan tirik yurgan kimsan-Zindan Fili Ahmadi Jom ham shudir

Boshikim tark tojidan barumand

Bo‘lub tojig‘a gardun **tugma** manand (364-bet)

Uning boshi hamma narsani tark etish tojidan bahramand bo‘lib,
butun biro lam uning shu tojiga qadalgan bir **tugma** demakdir.

Miqrozila lom-aliflari rust,
Ta’n ahli tilin tutub kesib chust.(Layli va Majnun, 17-bet)

“Xamsa”da tikish -bichish buyumlari boshqa so‘zlar qatori misra tarkibida kelib anglashanayotgan fikrni yanada ochiqroq ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Navoiy sultonlar haqidagi bobda chin dunyo haqida gapirib shunday deydi:

Garchi sinuq **igna** haqqunosdir,
Bag‘ring aro xanjari olmosdir.

Agar birovdan tortib olganing siniq igna bo'lsa ham u yerda olmos xanjar bo'lib bag'ringa qadaladi.

Navoiy buyum nomlarini turli o'rinlarda, turli vazifalarda, turli maqsadlarda qo'llaganini ko'rdik. Navoiy buyumni vosita sifatida ham qo'llagan:

It kibi chun pastlig'ni chog'ladim

O'zni biyiklar **ipiga** bog'ladim.

Jomiy ta'rifida keltirilgan bobdagi ushbu misrada Navoiy o'zini it kabi past baholab, o'zimni ulug'lar ushlagan arqonga bog'ladim deya o'zining kamtarona qiyofasini ko'rsatib o'tgan.

Xullas, Navoiy uy-ro'zg'or buyumlarining nomlarini tuli mavzulardagi baytlarda qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Ijodkor uy-ro'zg'or buyumlarining nomini keltirishdan maqsad oddiygina bayt ochish emas, aynan qalamga olingan mavzuni yanadaochiq ko'rsatib berishdan iborat. Demak, Navoiyning bu nomlarni qo'llashda qanchalar mahorarli so'z san'atkori ekanligini yaqqol ko'rinadi.

Igna uchi birla jazb etib nam,

Kim bahr suyini aylagay kam.(Layli va Majnun, 26-bet)

Xoma bila ulki seni sizdi,

Gapharni qaro **ipakka** tuzdi.(Layli va Majnun, 26-bet)

Eshilgan **rishtasi** tobi vafodin

Teshilgan bog'I haqqoni qazadi (377-bet)

Uning jon iplari vafo tobi bilan eshilgan bag‘ri qazoning o‘ymakori bag‘ri qazoning o‘ymakori tomonidan teshilgan.

Umuman Navoiy ijodining sermazmunligi, turli mavzularda jilolanishi besh asrdan oshibdiki ilm ahllarining qalbini rom etadi. Demak, shoir ijodini yanada chuqur o‘rganishimizga, tahlil qilishimizga ya’na bir da’vatdir.

2.2. Duradgorlik bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlari

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari misralar tarkibida turli vazifalarda qo‘llangan.

Ushbu misrada ham uy-ro‘zg‘or buyumi nomi ko‘chma ma’noda qo‘llangan va misraning badiiyatini yanada oshirgan.

Keyingi misraga e’tibor qilaylik,
Bu qon qazmoqni ulkim pasha
Kerak xorofikan ilgida **tesha**

Ushbu baytda esa, buyum nomi o‘z ma’nosida qo‘llangan. Demak, kimki bu qonni qazishni o‘ziga hunar qilib olgan bo‘lsa, qo‘lida qattiq toshlarni ham kesa oladigan teshasi bo‘lishi kerak.

6. Bu qon qazmoqni ulkim pesha,
Kerak xarafikan ilgida **tesha** (368-bet)

Kimki bu qonni qazishni o‘ziga hunar qilib olgan bo‘lsa, qo‘lida qattiq toshlarni ham kesa oladigan teshasi bo‘lishi kerak.

Ularning o‘tkir teshalari oldida har qanday qora tosh go‘yo pichoq oldidagi sariq yog‘day yumshoq edi.

Otint aytu ani hamkim bu pasha,
Ki yo‘ng‘ay mumdek xoroni **tesha** (390-bet)

Hunaring bilan bir qatorda etintni ham ayt, Qanday qilib teshang bu qattiq toshlarni mumdek yo‘na olishini tushuntirib ber.

Ne suv birla beribsan **teshanga** zeb,

Ki topmast qora yo'nmoq birla oseb.(390-bet)

Sening teshang esa tosh bilan ham hech zararlanayotgan yo'q. Unga sen qanday suv berasan?

Otim Qoran ishim xud oshqaro
Qo'limda **tesha** oldimda xaro.(390-bet)

Otim Qoran. Ishim bo'lsa o'zi ko'zga ko'rinib turibdi. Qo'limda teshayu oldimda qattiq toshlar.

Ranj tog'in qozmoq aning peshasi
Tog'i aning- nazmu tili-**teshasi**. (218-bet)

Uning hunari mehnat-mashaqqat tog'ini qazish; bunda tog' uning she'riyati, tesha esa uning tilidir.

So'z mayini ul kishi oshib yetib,
Kim duri ma'ni sadafin **jametib** (225-bet)

Kim ma'no durining sadafidan o'ziga jom qilgan bo'lsa, so'z mayini o'zga odam to'la simiradi.

13.) Dardu balo tog'ida Farxod o'lub
Tirnog' anta **teshai** pulod o'lub.(229-bet)

Dardu balo tog'ida Farxod bo'lish kerak, tirnog'larni po'lat teshaga aylantirishi zarur.

Navoiy "«Xamsa» dostonida duradgorli bilan bog'liq nomlar ham uchraydi. Buni qarangki, Navoiy bir nom bilan alohida-alohida vazifani bajaruvchi bitta so'zni keltiradi:

Ranj tog'in aning peshasi
Tog'i aning- nazmu tili peshasi
Dardu balo tog'da Farxod o'lub
Tirnoq anga **teshai** po'lod o'lub

Birinchi bandda qo'llangan buyum nomi Dehlaviyning naqadar o'tkir zehinli ekanligini anglatadi, ikkinchi bandda qo'llangan buyum nomi esa shijoatli kishi bo'lishlikka dav'at etadi.

Satrlardagi Dehlaviyning hunari mehnat-mashaqqat tog'ini qazish; bunda tog' uning she'riyati, tesha esa uning tilidir.

Ikkinchi bandda dardu balo tog'ida Farhod bo'lish kerak, tirmog'larni po'lat teshaga aylantirish zarur. Har ikkala banddagi so'z tahlilini qarangki, naqadar mahorat bilan o'z o'rnida qo'llangan.

Xanjare asrar edi pinhoni,

Yoshurun ham bor edi **suhoni** (SS.XXIII.162.)

Suhon-egov*

Yuqorida ko'rib o'tilgan uy-ro'zg'or buyumlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

Har bir xalqning tarixiy, madaniy-milly qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari, yirik adib va shoirlari bo'ladi. O'zbek xalqi ham o'zining uzoq tarixi davomida yuzlab jahonshumul insonlarni maydonga chiqardi. Ular dunyo tarixida o'chmas adabiy iz qoldirdilar. Insoniyatning abadiyatga mansub ana shunday buyuk farzandlaridan biri, o'zbek xalqining iftixori- o'zbek adabiy tilining asoschisi, g'azal mulking sultoni Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir.

Mutafakkir shoir Navoiy Alloh va olam, olam va odam, hayot mohiyati-yu inson umrining mazmuni haqida keng va teran mulohaza yuritgan. Barcha davrlar va zamonlar uchun yetuk donishmandlar hisoblangan Navoiyning badiiy pardasiga o'rab taqdim etilgan bu boradagi

fikr-mulohazalari o'zining favqulodda teranligi, falsafiy tarmog'i va badiiy mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Aytaylik, dunyoning notekis yaralganligi, falakning tubanligiyu taqdirning notantiligi, hayotning shavqatsizligi-yu zamonning adolatsizligi haqida yozilgan asrlar, bayt-u misralarning had-u hisobi yo'q.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyotining xazinasini boqiy asarlari bilan boyitgan ulug' mutafakkirdir. Uning o'lmas asrlari xalqimiz milliy ma'naviyatining ko'rki bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Alisher Navoiy 1483-1485-yillarda o'zbek tilida "Xamsa" -besh doston yaratish maqsadini amalga oshirdi. 1485-yilda o'zining mashhur "Nazm ul javohir" asrini yozdi, bunda birinchi xalifalaridan bo'lmish Hazrat Alining 226 ta hikmatli gapi taronayi ruboiy shaklida bayon etilgan.

Qayd etish joizki, har bir adabiy tilning so'z boyligi shu tilning shakllanishida va taraqqiy etish bosqichlarida turli-tuman lingvistik yoki ekstralingvistik jarayonlarga bardosh berishga muvaffaq bo'lgan, qo'llanish darajasini susaytirmagan, til leksik fondining asosini tashkil qiluvchi leksik birliklardan iborat bo'ladi. Navoiy tilida iste'molda bo'lgan qadimgi turkey til va leksikasining salmoqli qismi aynan turli sohalarda qo'llanuvchi terminlar ekanligi bilan diqqatni jalb etadi. Ana shunday qatlam so'zlardan biri uy-ro'zg'or buyumlaridir. Uy-ro'zg'or buyumlarini ifodalovchi terminlar eski o'zbek adabiy tili, jumladan, hozirgi o'zbek tili leksikasining tarkibidagi faol leksemalari sanaladi.

Professor X Doniyorov ta'kidlaganidek: "Hayotdagi doimiy o'zgarish va yangilanish bilan bog'liq ravishda hamma narsa o'z vaqti bilan o'zgaradi, eskiradi, hatto o'z hayotini tugatib asta-sekinlik bilan iste'moldan chiqib boradi. Tilda va shevalarda ham shunday hodisa ham uzluksiz ravishda yuz berib turadi"²⁴.

Ma'lumki, har qanday lug'at tarkibining harakati asosan ikki jarayon – leksikaning boyib borishi hamda muayyan so'z guruhlarining eskirishi yoki asta-sekin iste'moldan chiqib ketishi bilan o'lchanadi. Leksamalarning arxaiklashuvi yoli lug'at tarkibidan butunlay tushub qolishi so'z boyligidagi keragidan ortiqlikka barham berish an'anasi bilan bevosita aloqadordir. Eski 'zbek adabiy tili davrida ushbu an'ana keng ko'lamli tus olgan bo'lib bu

²⁴Doniyorov X., Yo'ldoshev B..Adabiy til va badiiy stil. Toshkent, "Fan", 1988.

jihat soʻz qoʻllanishidagi maʼlum meʼyorlarning shakllanishi va qaror topishini koʻrsatadi.

Soʻzlarning qoʻllanishdan tushib qolishining ikkinchi sababini Navoiy davri uchun ular ifodalagan tushunchaning eskirgankigi, oʻziga xos boʻlmaganligi orqali izohlash mumkin boʻladi.

Atoqli abid asarlaridagi sof turkiy leksik qatlamni qadimgi turkiy til soʻz boyligi bilan qiyoslash yuqorida qayd etilgan jihatlar qatori VI-XI asrlarga oid barcha soʻzlarning Navoiy leksik xazinasidan oʻrin olmaganligini koʻrsatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy asarlari tilida ishlatilishda davom etgan tub turkiy soʻz boylikning asosini zamon sinovidan oʻtgan, turli jarayonlar taʼsirida boʻlishiga qaramay, lugʻat tarkibidan muhim oʻrin olgan leksemalar tashkil qilgan.

Ham ijtimoiy, ham maʼnaviy – maʼrifiy hayotda adabiyotning mavqei benihoya balandligi shundaki, u kishining his-tuygʻularigagina emas, balki tafakkuri va shuuriga, fikrlash tarzi va oʻzaro insoniy munosabatlariga uning irodasiga bogʻliq boʻlmagan holda taʼsir oʻtkazadi. Eng yaxshi badiiy asarlar butun insoniyatning, ayniqsa, yoshlarning sodiq doʻsti, zero ular qalbini yuksak va olijanob tuygʻular bilan toʻldirishda, yana ham muhimi, ularni ezgu ishlarga ilhomlantirish, oʻquvchilarda Vatan, xalq oldidagi burch hissini yuksaltirishda yetakchi omildir. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning asarlari bu borada beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shoirning boy merosidan bahramand boʻlish yoshlarimizning komil inson boʻlib voyaga yetishida muhim rol oʻynaydi. Navoiyning oʻzi taʼkidlaganidek, tarbiyaning maqsadi – yosh avlodni xalqparvar, bilimli, yaxshi fazilatli qilib yetishtirishdir.

Alisher Navoiy VI asr ilgari bugungi kun oʻzbek xalqining buyuk kelajak sari intilayotgan yoshlariga qarata aytilgan bashorat tarzidagi fikrlari desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy ijodida soʻzlarning ichki va tashqi maʼnolariga beqiyos eʼtiborni qaratgan. Natijada shoirning lugʻat boyligi ortib borgan, soʻzlarning shakliy va maʼnaviy koʻrinishlari xilma-xillik kasb etgan, maʼlum bir soʻzning juzʼiy maʼnosi kengayib, kuliy mohiyati matnlararo turli xil koʻrinishlarda namoyon boʻlib borgan.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida asosiy bahs Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tilida qoʻllangan qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga oid uy-roʻzgʻor buyumlari nomini anglatuvchi soʻzlar leksik-semantik aspektda oʻrganilganligidir.

Qardosh turkiy tillar, xususan, oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishida Turk hoqonligi va undan keyingi davrlarda bitilgan yodgorliklarning oʻrni, ularga xos fonetik-fonologik, morfem-morfologik, sintaktik xususiyatlar qatori leksik-semantik xususiyatlar alohida rol oʻynaydi.

Qadimgi turkiy (VII-X) va eski turkiy til (X-XIV) dan meros sifatida yetib kelgan tub leksik birliklarning muayyan qardosh turkiy tilda ishlatilishi, saqlanishi masalasi leksik-semantik aspektlarda tadqiq etish qardosh turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tili shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash ularning etnogenezi bilan bogʻliq bahsli masalalarga oydinlik kiritadi, ularni ijobiy yechishga xizmat qiladi.

Maʼlumki har qanday tilning obroʻ-eʼtibori, qimmati shu tilga taalluqli birliklarning adadi, isteʼmol doirasi, oʻzaro aloqalarga kirisha olish imkoniyatlari bilan oʻlchanadi. Shu jihatdan oʻzbek adabiy tilining huquqiy bunyodkori Alisher Navoiy soʻz boyligiga sof turkiy qatlamning asosini tashkil etuvchi qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga tegishli uy-roʻgʻor buyumlarini bildiruvchi soʻzlarning leksik-semantik tahlili oʻzini oqlaydi.

Navoiy “Xamsa” asarida u yoki bu darajada ishlatilgan qadimgi turkiy til leksikasining uy-roʻgʻor buyumlarini bildiruvchi soʻzlar tahlilini qamrab olganligini koʻrsatdi. Biroq asarda uchraydigan turkcha uy-roʻgʻor buyumlarini bildiruvchi soʻzlar farqlanadi.

G'arbda "chig'atiy adabiyotining buyuk vakili", Sharqda "din va millatning nizomi" unvonlari bilan ulug'lanib kelayotgan Navoiy ijodini ulkan ibrat kitobi desak bo'ladi. Shoirning boy va bebaho merosi asirlar mobaynida ajdodlarimizni ezgulikka, mehr-muruvatlikka, tinchlik va da o'stlikka da'vat etib kelgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, bobokalonimiz shaxsiyati va ijodiga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Shoirning boy va adabiy merosiga to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo'ldik.

Shu ma'noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat- ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish xorijiy ellarga ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Har bir inson, u qanday kasb egasibo'lishidan qat'i nazar, ma'naviy jihatdan barkamon bo'lsa, o'zi yashab turgan jamiyat uchun foydasi ko'proq tegadi, berilgan umri mazmunli bo'ladi. Biz ushbu ishimizda Alisher Navoiy hayoti va ijodi, ular qoldirgan ma'naviy merosidan ijodiy foydalandik. Unda Mir Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi va g'azal mulkining sultoni, qolaversa, jahon adabiyoti xazinasiga durdona asarlarini taqdim etgan barkamol inson sifatida biz yoshlarga ibrat bo'ladi. Chunki Navoiy siymosi ma'naviy barkamollik kasb etish orzusida bo'lgan talabalar uchun tom ma'nodagi namuna katta ibrat maktab vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A Adolatli jamiyat sari, Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 160 b.
2. Karimov I.A Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O‘zbekiston, 1994. -299 b.
3. Karimov A Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilining leksik – semantik va stilistik xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. T., 1973, 22-bet.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O‘zbekiston, 2000. -80 b.
5. Abdiev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili muammolari. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 117 b.
6. Abdullaev A. ALISHER O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent: Fan, 1983. -88 b.
7. Abdushukurov B. XI-XIV asr turkiy yozma obidalar tilidagi zoonimlar, NDA, Toshkent: 1998. 23 b.
8. Abdurahmonov D. It nomlari haqidAlisher G‘G‘Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 4-kitob. Toshkent: 1962, 464-470-b.
9. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami, 20 tomlik, XVI tom, Toshkent: Fan. 2000, 5-40 b.
10. Baskakov N.A, Sodiqov A.S, Abduazimov A Umumiy tilshunoslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1979. -192-b.
11. Bafoev B. Ko‘hna so‘zlar tarixi. Toshkent: Fan, 1991. 152-b
12. Begmatov E.A Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan. 1985. – 200b.

13. Begmatov E., Ne'matov H, Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya tezislar) "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1989 yil, 6-son, 35-40 betlar.
14. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish, DDA, Toshkent: 1997, 52-b.
15. Bryunsov V.L. Tafakkur gulshani.T., 1981 yil.
16. Дадабоев Х., Носиров И., Хусанов Н. Проблемы лексика стороузбекского языка. Т., Фан. 1990.
17. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni), DDA, Toshkent: 1999. 49-b.
18. Iskandarova Sh. Leksikani semantik maydon asosida o'rganish muammolari. Toshkent: Fan, 1998. 52-b.
19. Muhammadjonov G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi muammolari. Toshkent: Fan, 1982. 88-b.
20. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi. 1995, 128 b.
21. Nurmonov AO'zbek tili leksikologiyasining shakllanishi va takomillashuvi // Turfa (prof. H.Ne'matovning 60 yilligiga bag'ishlangan to'plam). Toshkent: Meros. 2001, 34-41-betlar.
22. Nurmonov AO'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent: O'zbekiston. 2002, 232-b.
23. Рахматуллаева М.К. Вопросы изучения синонимов в лирике Алишер Навои (на материале Наводуир аннихоя). Афтореф дисс.канд. филол. наук. Т., 1965, 21 с.
24. Toxirov Z. O'zbek tilida semalarning hosil bo'lishi va ularda sub'ektiv munosabatlarning yuzaga chiqishi, NDA, Toshkent. 1994, 24-b.
25. Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston. 1992. 399 b.
26. Shomaqsudov A, Rasulov I., Qo'ng'irov R., Rustamov A. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. 248-b.

27. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1957. 526-b.
28. Hojiyev A Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari// O'zbek tili va adabiyoti, 1994, 1-2-son, 18-20-betlar.
29. Hojiyev A Til qurilishining asosiy birliklari yuzasidan mulohazalar //O'zbek tili va adabiyoti, 2005, 2-son, 45-49-betlar.
30. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik.1-tom.M., 1981.632-b.
31. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik.2-tom.M., 1981.715-b.
32. O'rinboev B. Turkiy xalqlar adabiy tili tarixi. Samarqand.2006, 66-bet.
33. Hojiyev A Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.168-b.
34. Hojiyev AO'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, 1974.308-b.
35. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent: Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh nashriyoti. 2001. 336 b.
36. Fozilov E. O'zbek adabiy tilining shakllanish tarixi haqidAlisher//O'zbek tili tarixi masalalari: T., "Fan", 1977-yil. 3 b.

ILOVA

Atboq- tabaq ning ko‘pligi (27)

Aqdoh- qadahning ko‘pligi (32)

Baydaq-piyoda (36)

Balbala- uzun bo‘yinli ko‘za (37)

Biyiz-bigiz (48)

Bilav- egov, qayroq tosh (48)

Bisot-palos (49)

Bistar-to‘shak, o‘rin (49)

Bichak-igna,so‘zan (49)

Bodapola-may suzgich (50)

Bolish-yostiq (51)

Bolisht-bolish ga q.

Bulbula-may ko‘zachasi (54)

Burron-o‘tkir tig‘ (55)

Vatad-mix pona (59)

Vatar-sim tor.(59)

Giribon-yoqa (66)

Gulmix-qoziq (68)

Darband-keng qisqa ko‘cha (68)

Dastos-qo‘l tegirmon (75)

Doman-etak (80)

Doroyi-Ipak gazlama (81)

Doshxona- Xumdon(81)

Durdon-dur saqlaydigan quti.(82-bet)

Jayb-cho‘ntak yoqa(86-bet)

Jorub-supurgi (92-bet)

Jul-tuqum(92-bet)

Junoq-egarning qoshi(93-bet)

Zaylucha-gilamcha, sholcha (95-bet)

Zarrishta-oltin ip(98-bet)

Ibriq-bo‘yni uzum ko‘za(99-bet)

Iyar-egar(100-bet)

Iskandaroniy-kursi o‘rindik (113-bet)

Yaba-kurak,chorshoz, ayri(119-bet)

Yarg‘umak-qo‘l tegirmon (122-bet)

Qavurg‘a-katta nog‘ora(126-bet)

Kadu-qovoq(126-bet)

Kaz-ipak(126-bet)

Kafiliz-kapkir(130-bet)

Qiz-qiyiz namat(131-bet)

Ko‘raga-palos (139-bet)

Lifos-ko‘rpa , choyshab(143-bet)

Mashab-dag‘al shol(161-bet)

Mashraf-palos, to‘shak(161-bet)

Mezon-o‘lchov og‘irlik(168-bet)

Misboh-chiroq(170-bet)

Misvoq-mushk(170-bet)

Miqroz-qaychi(170-bet)

Mihoz-o‘rin(170-bet)

Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tilshunosligi kafedrası
5A 141101-o'zbek tili mutaxassisligi magistranti Faxriddin
Toshpo'latovich Rajabovning "Alisher Navoiy "Xamsa" sida
qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik tahlili"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
TAQRIZ

O'zbekiston keyingi yigirma yil ichida ma'naviy va madaniy yuksalish yo'liga chiqib oldi. Jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi fan olamida ham tub burilishlar, sifat o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko'plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o'rganish muhimdir" (Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. "O'zbekiston", 1994, 59-bet).

Shunday ekan, so'z san'atkorining badiiy til mahoratini o'rganish, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini ko'rsatish imkonini beradi. Badiiy mahorat tushunchasi til va badiiy uslub mezoni hamdir. Chunki yozuvchining so'z tanlash san'ati uning tasviriy vositalardan foydalanish, so'z qo'llash mahorati badiiy asar tilini o'rganishning asosini tashkil qiladi.

Badiiy asar tili badiiyatini o'rganish o'zbek tilshunosligida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki yozuvchi asarlari matni lingvostatistik, grammatik, leksik tahlili borasida hali bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami keng, uning o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissi va ijodiy uslubining o'ziga xos belgilarini aniqlash masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Masalaga ana shu nuqtai nazardan Faxriddin Toshpo'latovich Rajabovning "Alisher Navoiy

“Xamsa” sida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi dolzarb mavzuga bag‘ishlangan.

Tadqiq qilinayotgan dissertatsiyadan maqsad Alisher Navoiyning “Xamsa” sida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik xususiyatlarini belgilashdir.

Mazkur dissertatsiya ishning umumiy tavsifi, kirish, ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan iborat.

Ishning umumiy tasnifi qismida muallif o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligi, tadqiqot obyektiva manbalari, maqsad va vazifalari, tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari, ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ishning hajmi va tuzilishi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi.

“Kirish”da Alisher Navoiy adabiy tilining o‘rganilish tarixi va uning muhim vazifalari, badiiy adabiyot tilining o‘rganilish aspektlari haqida fikr yuritadi.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobi “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo‘llangan xona va oshxona jihozlari bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlili” deb ataladi. Bu bobda mulohazalar “Xamsa” da qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari va ularning semantikasida o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida qo‘llangan tikish-bichish va duradgorlik bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlili” deb nomlanib, unda asarda qo‘llangan stikish-bichish va duradgorlik bilan bog‘liq so‘zlarning semantik-uslubiy imkoniyatlarikabi bayon qilingan.

Keltirilgan faktik materiallar, ko‘p o‘rinlarda, ilmiy – nazariy fikrlarni tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Shunisi muhimki, “«Xamsa” asarida uy-ro‘zg‘or buyumlarini bildiruvchi so‘zlarni mavzuviy guruhlarga bo‘lib yoritishga alohida diqqat qilingan.

Ishda berilgan umumiy xulosalar dissertatsiyaning mazuniga to'la mos tushadi.

Xullas, Faxriddin Toshpo'latovich Rajabovning "Alisher Navoiy "Xamsa" sida qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik tahlili" nomli ishi magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi yaxshi saviyadadir va bu ish o'zbek tili mutaxassisligi talablariga javob beradi. Muallif esa magistrlik darajasini olishga loyiq.

Taqrizchi:

f.f.d. N.Murodova

Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tilshunosligi kafedrası
5A 141101-O'zbek tili mutaxassisligi magistranti Faxriddin
Toshpo'latovich Rajabovning "Alisher Navoiy «Xamsa» sida
qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik tahlili"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
TAQRIZ

So'z mulkuning sultoni Hazrat Alisher Navoiyning bebaho ijodiyotini cheksiz ummonga qiyoslasak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Uning ijodiyotini hali ochilmagan qirralari juda ko'p. O'zbek tilining tom ma'nodagi asoschisi Alisher Navoiy ijodini har tomonlama tadqiq qilish shoir hayotligi davridayoq boshlangan edi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq barcha sohalarda, jumladan, til va adabiyot sohasida ham yangilanish, yuksalish davri boshlandi. Navoiy ijodi ham yangicha qarashlar asosida tadqiq qilish borasida anchagina ilmiy – amaliy ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqot uning ildizini tashkil etadi".

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi "Alisher Navoiy "Xamsa" sida qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik tahlili"ga bag'ishlanadi.

Ishning "Kirish" qismi "Alisher Navoiy asarlari tilini o'rganilish darajasi" masalasiga bag'ishlangan bo'lib, bunda talaba o'z ilmiy qarashlarini atroflicha izohlashga uringan.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobi "Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonida qo'llangan xona va oshxona jihozlari bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlarining leksik-semantik tahlili" deb ataladi. Bu bobda mulohazalar "Xamsa" da qo'llangan uy-ro'zg'or buyumlari nomlari va ularning semantikasida o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonida qo‘llangan tikish-bichish va duradgorlik bilan bog‘liq uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlili” deb nomlanib, unda asarda qo‘llangan tikish-bichish va duradgorlik bilan bog‘liq so‘zlarning semantik-uslubiy imkoniyatlarikabi bayon qilingan.

Ishda berilgan umumiy xulosalar magistrlik dissertatsiyasi mazmuniga to‘la mos tushadi.

Xullas, Faxriddin Toshpo‘latovich Rajabovning “Alisher Navoiy “Xamsa” sida qo‘llangan uy-ro‘zg‘or buyumlarining leksik-semantik tahlili” nomli ishi magistrlik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi yaxshi saviyadadir va bu ish o‘zbek tili mutaxassisligi talablariga javob beradi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasini ilmiy asoslangan va tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.n. dots. M.Ravshanov